

INGLIZ TILINI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN KENG TARQALGAN QIYINCHILIKLAR VA ULARNI YENGISH STRATEGIYALARI

Ravshanova Zaynura Baxodirovna

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

Ilmiy rahbar: Nilufar Zubaydova Ne'matillayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishda o'rganuvchilar duch keladigan keng tarqalgan qiyinchiliklar va ularni yengish strategiyalari yoritilgan. Asosiy e'tibor talaffuz, grammatika, so'z boyligini kengaytirish, eshitib tushunish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda uchraydigan muammolarga qaratilgan. Har bir qiyinchilik bo'yicha o'rganuvchilarga amaliy va samarali yechimlar tavsiya etiladi. Tadqiqotlar va adabiyotlar asosida berilgan ushbu strategiyalar o'rganuvchilarga ingliz tilini samarali va oson o'rganishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Ingliz tili, o'rganish, qiyinchiliklar, talaffuz, grammatika, so'z boyligi, eshitib tushinish, o'rganish strategiyalari, til ko'nikmalari.

Ingliz tili dunyodagi eng keng tarqalgan tillardan biri bo'lib, xalqaro kommunikatsiyada muhim ahamiyatga ega. Lekin ko'plab o'rganuvchilar bu tilni o'rganishda turli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishda uchraydigan keng tarqalgan qiyinchiliklar va ularni yengish strategiyalari yoritiladi.

Talaffuzdagi qiyinchiliklar. Ingliz tilida talaffuz boshqa tillarga qaraganda murakkab. Bir xil yozilgan so'zlarning turli talaffuzi yoki farqli yozilgan so'zlarning o'xshash talaffuz qilinishi ko'plab o'rganuvchilarni chalg'itadi. Talaffuzni yaxshilash uchun ingliz tilida film va audiokitoblarni eshitish, tarjima qilmasdan tushunishga harakat qilish foydali. Shuningdek, IPA (International Phonetic Alphabet) dan foydalanib, so'zlarning to'g'ri talaffuzini o'rganish mumkin. Grammatik qoidalarni o'zlashtirish qiyinchiligi. Ingliz tilidagi grammatik qoidalar ko'pincha murakkab va qiyin. Masalan, zamonlar tizimi, artikllardan foydalanish, har xil fe'l turlari ko'plab o'rganuvchilarni qiynaydi. Yechim: Dastlab asosiy qoidalarni o'rganishga e'tibor qaratish kerak. Grammatikani amaliy mashqlar va yozuvlar orqali mustahkamlash juda samarali. Ingliz tilidagi qisqa matnlarni yozib, grammatik xatolarni tahlil qilish tavsiya etiladi.

So'z boyligini kengaytirishdagi muammolar. Ingliz tilida juda ko'p yangi so'zlar borligi sababli, so'z boyligini kengaytirish oson emas. Ko'p so'zlarni yodlash, ularning sinonim va antonimlarini bilish ham qiyin vazifalardan biridir. Har kuni ma'lum miqdordagi yangi so'zlarni yodlashga va ularni kundalik suhbatlarda qo'llashga

harakat qilish kerak. Flashcards va onlayn lug'atlardan foydalanib, so'z boyligini kengaytirish mumkin. Shuningdek, mnemonik texnikalardan foydalanish so'zlarni eslab qolishni osonlashtiradi. Eshitib tushunishdagi qiyinchiliklar. Ingliz tilida turli aksentlar va talaffuzlar mavjudligi sababli, o'rganuvchilar ba'zan eshitib tushunishda qiynalishadi. Xususan, tez gapirilgan nutqni tushunish oson emas. Bunda yechim, eshitish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ingliz tilida podkastlar, kinolar va intervyularni tinglash foydali. Avval sekin nutqlarni tinglab, so'ng tezroq nutqlarga o'tish tavsiya etiladi.

Gapirishdagi qiyinchiliklar. Ingliz tilida muloqot qilish o'rganuvchilar uchun qiyin vazifalardan biridir, chunki ko'pchilik gapirishdan uyaladi yoki xato qilishdan qo'rqadi. Yechim esa, har kuni kichik gaplar va ifodalar bilan boshlash kerak. Muloqot qilish uchun suhbat klublariga yoki onlayn kurslarga qatnashish yaxshi yechim bo'ladi. Va bundan tashqari, partniyor topib u bilan 1 kunda kamida 2 yoki 3 soatdan birga speaking qilish ham speakingni oshirishga katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'rganishda duch kelinadigan qiyinchiliklar murakkab tuyulsa-da, tegishli strategiyalar yordamida ularni yengish mumkin. Amaliy mashqlar, ko'p tinglash va suhbat orqali til ko'nikmalarini rivojlantirish o'rganuvchining muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.
2. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Longman.
3. Swan, M., & Smith, B. (2001). Learner English: A Teacher's Guide to Interference and Other Problems. Cambridge University Press.